



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 06 | pp. 47-53 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

16-SON MHXS DOIRASIDA FOYDALANISH HUQUQI TARZIDAGI AKTIVNING TAN OLINISHI VA MOLIYAVIY HISOBOTLARDA IFODALANISHI



Xasanboyev Oxunjon Ximmatjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

E-mail: theohunjon@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq ijara shartnomasida foydalanish huquqi tan olishning o'ziga xos jihatlari bayon qilingan. Jumladan, foydalanish huquqi tarzidagi aktiv, elementlari va moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishi masalalari tahlili qilinib, tegishli xulosalar shakllantirildi.

Kalit so'zlar: Ijara, ijara shartnomasi, foydalanish huquqi tarzidagi aktiv, ijara majburiyati, ijara to'lovlari, diskontlash stavkasi, ijara obyekti.

Аннотация: Аренда, договор аренды, право пользования активом, обязательство по аренде, арендные платежи, ставка дисконтирования, арендованный актив.

Ключевые слова: Аренда, договор аренды, право пользования активом, обязательство по аренде, арендные платежи, ставка дисконтирования, арендованный актив.

Abstract. This article describes the specific aspects of recognizing a right-of-use asset in a lease agreement in accordance with international financial reporting standards. In particular, the issues of the right-of-use asset, its elements and its reflection in financial statements are analyzed and relevant conclusions are drawn.

Key words. Lease, lease agreement, right-of-use asset, lease liability, lease payments, discount rate, leased asset.

Kirish

2016-yilda qabul qilingan 16-son MHXS "Ijara" standarti butun dunyoda buxgalteriya hisobida ijara muomalarini hisobga olish va hisobda yuritish tartib-taomillarida katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Yangi standartda belgilangan talabga ko'ra, ijaraga oluvchi ham ijara shartnomasiga muvofiq ijara obyekti ustidan foydalanish huquqi tarzidagi aktivni va bunga mutanosib ravishda ijara bo'yicha majburiyatni buxgalteriya hisobida tan olishi kerak. Ushbu standart qabul qilingungacha bo'lgan davrda, amalda bo'lgan 17-son BHXS da ham, milliy buxgalteriya amaliyotimizda ijara muammolarini tartibga soluvchi 6-son BHMS da ham, ijara shartnomasi doirasida ijara operatsiyalari ikki turda alohida moliyaviy hamda operatsion ijara tarzida tan olingan bo'lib, operatsion ijara bo'yicha moliyaviy hisobotlarda aktiv tan olinmagan. 16-son MHXS ning joriy qilinishi natijasida ijara operatsiyalari yagona tartib asosida hisobga olina boshlandi. Natijada moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun korxonalar moliyaviy

hisobotlarida ijara munosabatlari bo'yicha aktivlar va majburiyatlar yanada shaffofroq va to'liq tan olinib, moliyaviy ko'rsatkichlar sifati oshdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

16-son MHXS ga muvofiq ijara bo'yicha aktivlar va majburiyatlar tan olish mezonlari Moliyaviy hisobotning konseptual asoslaridan kelib chiqib shakllangan[1]. Foydalanish huquqi tarzidagi aktiv tan olish asosi konseptual asosda ta'kidlangan aktivni tan olish shartlariga asoslangan hisoblanadi[2]. Konseptual asosga ko'ra aktiv – bu o'tgan davr natijasida paydo bo'lgan hamda korxona nazorati ostida bo'lgan, kelajakda korxonaga iqtisodiy naf olib keladigan iqtisodiy resurs hisoblanadi. Ijara munosabatlari vujudga keladigan aktivdan foydalanish huquqi ijaraga oluvchining nazoratidagi, o'tgan davrdagi voqea-hodisalar natijasi bo'lib, korxona ijara muddati davomida ijaraga olingan aktivdan foydalanishi natijasida kelajakda iqtisodiy nafni taminlaydi. Natijada standartda belgilangan aktivni tan olish korxonalar moliyaviy hisobotlarida aktivlar hisobini yanada shaffofroq va to'liq holda taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

Ijara munosabatlarini hisobini moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar hamda korxonalar faoliyatidagi o'rni borasida bugunga qadar ko'plab tadqiqotchi olimlar va izlanuvchilar o'z ishlarini olib borib, sohada o'z fikr va mulohazalarini bildirgan.

Xorijiy olimlardan N. Doron [5] o'zining izlanishida foydalanish huquqi tarzidagi aktivlar aktivlar hisobini oshirib, umumiy tarzda korxona yaratishi mumkin bo'lgan sotuvlar hajmini oshirishga olib kelishini ta'kidlagan. Shuningdek, M. Thomas [6] o'z tadqiqotida ijaraning iqtisodiy mohiyati va moliyaviy dastak vazifasi borasida korxonalar taraqqiyotidagi o'rni katta ekanligini borasida ilmiy izlanish olib borgan. S. Marco, S. Margherita va F. Massimilianolar birgalikda [7] ijara hisobini mulk huquqi, qat'iy majburiyat va xavf va foyda taqsimoti asosida tan olish nazariyasini ilgari surgan.

Mahalliy tadqiqotchi olimlarimizni sohada qo'shgan hissalar beqiyos. Y.Xaliqova [8] fikriga ko'ra ijara munosabatlari bo'yicha operatsiyalar hisobini aniqlilik darajasi moliyaviy rejalashtirish va operatsion samaradorlik bo'yicha qimmatli tahliliy ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Tadqiqotchi N. Qudbiyev [9] o'zining ilmiy izlanishlarida ijara munosabatlari nafaqat ijaraga beruvchi uchun iqtisodiy nafning yuqoriligi, balki ijaraga oluvchi uchun ham iqtisodiy jihatdan samarador ekanligini ta'kidlagan. A. Baxadirov [10] esa moliyaviy hisobotlarda ijara munosabatlarini to'g'ri va to'liq aks ettirish korxonalar faoliyatida investitsion jozibadorlikni oshirishini ilgari surgan.

Albatta yuqoridagi tadqiqotchi olimlar va izlanuvchilar fikrini inobatga olgan holda, ijara munosabatlarida foydalanish huquqi tarzidagi aktiv hisobini xalqaro amaliyotlar asosida yanada chuqurroq tadqiq etish kerak deb hisoblaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda ijaraga oluvchi korxonalarda foydalanish huquqi tarzidagi aktiv hisobini Xalqaro amaliyot (16-son MHXS) doirasida rivojlantirish masalalari, tahlil va taqqoslash metodlari foydalanib, tadqiqot amalga oshirilgan.

Tahlil va natijalar

Foydalanish huquqi tarzidagi aktivni dastlabki tan olish

16-son MHXS standard qabul qilinishi natijasida xalqaro miqyosda, shuningdek O'zbekistonda ham, moliyaviy hisobotlarda ijara muomalalarini aks ettirish yangi

bosqichga o'tmoqda. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori ijrosi natijasida aksiyanerlik jamiyatlari, sug'urta kompaniyalar, yirik soliq to'lovchilar, tijorat banklari o'zlarini hisobotlarini xalqaro standartlarga muvofiq taqdim etishi belgilangan[3]. Natijada amaliyotda ijara hisobini MHXS asosida tan olish va e'lon qilish amaliyotini tadbiriq etish zarurati yanada ortdi. 16-son MHXS ijara oluvchining buxgalteriya hisobini yagona model bilan ta'minladi. Bu modelga asosan, ijaraga oluvchi ijaraga olish sanasida ikkita elementni hisobga oladi:

- ijara obyektidan foydalanish huquqini ifodalovchi aktiv
- ijara bo'yicha kelajakdagi to'lovlar bo'yicha majburiyat

Natijada, ijara oluvchi subyektda mazkur sanada ijara muddati davomida aktivdan foydalanish huquqi paydo bo'lib, bunga mutanosib ravishda kelajakdagi to'lovlarning haqqoniy qiymatiga teng miqdorida majburiyatni tan oladi. Oldingi 17-son BHXS hamda 6-son BHMS da bu elementlar balansda aks etmas edi[4]. Ushbu elementlarni moliyaviy holat to'grisidagi hisobotda ko'rsatilishi konseptual asosda moliyaviy axborotlarga qo'yilgan asosiy sifat talablari haqqoniy taqdim etish va o'rinnilikni ta'minlaydi. Shuningdek, ijara shartnomasi bo'yicha foydalanish huquqi tarzidagi aktiv ijara shartnomasida belgilangan huquqlar va to'lovlar evaziga konseptual asosda aktivni tan olish barcha shartlarini iqtisodiy naf keltirish, nazorat, ishonchli baholash imkonini beradi. Bu o'z navbatida ijara munosabatlarining iqtisodiy mazmunini to'g'ri aks ettirish hamda operatsiyalarni yuridik shakldan ko'ra iqtisodiy mazmunini ustun qo'yishni ta'minlaydi.

16-son MHXS ga ko'ra foydalanish huquqi tarzidagi aktiv - bu ijara oluvchi subyektning ijara shartnomasida ko'rsatilgan aktivdan ijara muddati davomida foydalanish huquqini bildiradi. Boshqacha aytganda boshqa bir subyekt mulk huquqi mavjud bo'lgan bir paytda, ijara obyektidan foydalanib iqtisodiy nafga ega bo'lishini anglatadi. Tan olingan ushbu aktiv ijaraga oluvchining moliyaviy holat to'grisidagi hisobotida alohida qatorda aktiv sifatida aks ettiriladi.

16-son MHXS ga muvofiq ijaraga oluvchi foydalanish huquqi tarzidagi aktivni ijara boshlanish sanasida tan oladi. Ushbu aktiv standard belgilagan talablardan kelib chiqqan holda quyidagi elementlardan iborat bo'ladi:

- **Ijara shartnomasi bo'yicha ijara to'lovlarining keltirilgan qiymati** –ya'ni ijara shartnomasi doirasida kelajakda to'lanishi mumkin bo'lgan to'lovlar haqqoniy qiymatlari yig'indisidan iborat bo'ladi.
- **Ijara bo'yicha oldindan to'langan to'lovlar** – agar ijaraga oluvchi tomon ijara boshlanishidan oldin yoki boshlanishida oldindan bo'nak to'lov amalga oshirsa, bu to'lovlar aktivni dastlabki tan olishda hisobga olinadi
- **Ijara oluvchi subyektning dastlabki to'g'ridan to'g'ri xarajatlari** -ijara munosabatlariga kirishishda ijaraga oluvchi qilgan bevosita xarajatlar, brokerlik, yuridik maslahat kabi xarajatlardan iborat bo'ladi.
- **Demontaj xarajatlari** – agar ijara muddati oxirida ijara shartnomasiga binoan ijaraga oluvchi ijara obyektini bo'yicha demontaj qilish ya'ni joyni to'g'irlash, oldingi holatga keltirib qo'yish, tekislash kabi xarajatlarni amalga oshirishni nazarda tutsa, ushbu majburiyatning keltirilgan qiymati aktivning dastlabki tannarxiga qo'shiladi

Ushbu yuqorida ta'kidlangan elementlar foydalanish huquqi tarzidagi aktivning dastlabki tan olish qiymatini tashkil etadi.

Ijara bo'yicha majburiyatni dastlabki tan olish esa kelajakda to'lanishi kerak bo'lgan ijara to'lovlarining haqqoniy qiymatlarining yig'indisiga teng miqdorda tan olinib, har hisobot davri oxirida ijara shartnomasida ko'zda tutilgan foiz stavkasi yoki ijaraga oluvchining qarz olish mumkin bo'lgan foiz stavkasi miqdorida qayta tiklab boriladi. Bunda ijara to'lovlari sifatida quyidagi to'lovlar hisobga olinishi mumkin:

- ✓ Ijara shartnomasi bo'yicha belgilangan qat'iy to'lovlar;
- ✓ O'zgaruvchan to'lovlar;
- ✓ Ijaraga oluvchining ijara muddati oxirida aktiv saqlanishi bo'yicha kafolat bo'yicha to'lashi mumkin bo'lgan to'lovlar;
- ✓ Shartnoma doirasida shartnomani buzganlik uchun belgilangan jarimalar;
- ✓ Ijara muddati oxirida aktivni sotib olish bo'yicha huquqga ega bo'lish uchun to'lovlar

Foydalanish huquqi tarzidagi aktivni dastlabki tan olishdan keyingi baholanishi

16-son BHMS ga muvofiq dastlabki tan olingan foydalanish huquqi aktivi ijara muddati davomida amortizatsiya qilinadi. Ushbu aktiv hisobda hisoblangan amortizatsiya va agar qadrsizlanish mavjud bo'lsa qadrsizlanish bo'yicha yaratilgan zaxiralarni chegirgan holda hisobda tan olinadi. Har hisobot davrida ijara muddatida ko'rsatilgan muddatlarga mutanosib ravishda eskirish hisoblanib, xarajat tan olinadi. Agar ijara muddati oxirida ijara obyekti ijaraga oluvchiga mulk huquqi asosida o'tib ketish ehtimoli mavjud bo'lsa, eskirish ijara obyektining ijara muddati bo'yicha emas, balki ijara obyektining foydali xizmat muddatidan kelib chiqib hisoblanadi. Foydalanish huquqi tarzidagi aktivlar har hisobot sanasida ko'rib chiqiladi va qadrsizlanishga tekshiriladi. Agar ularning qiymatida o'zgarish sodir bo'lgan bo'lsa, o'zgarishni hisobga olgan holda qiymat hisobga olinadi.

Foydalanish huquqi tarzidagi aktiv hisobda aks ettirish bo'yicha amaliy misol

Ijara shartnomasi bo'yicha foydalanish huquqi tarzidagi aktiv va ijara majburiyati hisobini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun, amaliy misol yordamida ko'rib chiqamiz.

Misol. A korxona o'z faoliyatini amalga oshirish uchun 4 yil muddatga ofis binosini ijara oldi. Ijara bo'yicha yillik to'lovlar har yil oxirida 50 000 000 so'mni tashkil etadi. Ijara shartnomasi bo'yicha diskontlash stavkasi yillik 8% deb belgilangan. 16-son MHXS ga muvofiq, A korxona ijara boshlanish sanasida foydalanish huquqi tarzidagi aktiv va ijara majburiyatini tan olishi kerak. Bunda dastlab ijara shartnomasi bo'yicha pul oqimlarini aniqlab olinadi:

-Ijara shartnomasiga muvofiq yillik ijara to'lovi 50 000 000 so'm

Demak, ijara shartnomasida faqatgina bitta ijara to'lovi bo'yicha pul oqimi mavjud bo'lib, ijara majburiyati va foydalanish huquqi tarzidagi aktiv yagona pul oqimi yillik to'lovdan kelib chiqib hisoblanadi. Boshqa pul oqimi mavjud bo'lmaganligi sababli foydalanish huquq tarzidagi aktivi va ijara majburiyatining dastlabki qiymati bir biriga teng hisoblanadi. Foydalanish huquqi tarzidagi aktiv va ijara majburiyatining dastlabki qiymati yillik ijara to'lovlarining haqqoniy qiymati yig'indisiga teng miqdorda tan olinadi (1-jadval).

1-jadval.

Ijara to'lovlari jadvali (so'mda)¹

Ko'rsatkichlar	1-yil	2-yil	3-yil	4-yil
Kutilayotgan ijara to'lovlari	50 000 000	50 000 000	50 000 000	50 000 000
Diskontlash stavkasi	8%			

Yuqoridagi jadval ko'rsatilgan ijara to'lovlari diskontlash stavkasi hamda tegishli davrdan kelib chiqib aniqlangan faktor yordamida quyidagi tartibda diskontlanadi (2-jadval):

2-jadval

Ijara to'lovlarining haqqoniy qiymatini hisoblash jadvali (so'mda)²

Davr	Ijara to'lovi	Diskontlash faktori	Joriy qiymat
1	50 000 000	$1/(1+0.08)^1$	46 296 296
2	50 000 000	$1/(1+0.08)^2$	42 866 941
3	50 000 000	$1/(1+0.08)^3$	39 691 612
4	50 000 000	$1/(1+0.08)^4$	36 751 493
Foydalanish huquqi tarzidagi aktiv dastlabki qiymati			165 606 342

Ijara shartnomasi bo'yicha A korxona dastlab quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

- **Debit:** Foydalanish huquqi aktivi 165 606 342
- **Credit:** Ijara majburiyati – 165 606 342

Natijada A korxona buxgalteriya balansida 165 606 342 so'm aktiv va 165 606 342 so'm majburiyat kiritadi. Foydalanish huquqi tarzidagi aktiv uchun ijara muddati davomida quyidagicha eskirish hisoblanadi:

Yillik eskirish xarajati: $165\,606\,342/4 = 41\,401\,586$

Ijara muddati davomida foydalanish huquqi tarzidagi aktiv qiymati har hisobot sanasiga hisoblangan eskirish qiymatini hisobga olgan holda tan olinadi (3-jadval).

3-jadval

Foydalanish huquqi tarzidagi aktivning ijara muddati davomida tan olinishi (so'mda)³

Yil	Davr boshiga foydalanish huquqi aktivi	Yillik eskirish xarajati	Davr oxiriga foydalanish huquqi tarzidagi aktivning qoldiq qiymati
-----	--	--------------------------	--

¹ 16-son MHXS ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

² 16-son MHXS ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

³ 16-son MHXS ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

1	165 606 342	41 401 585.5	124 204 756.5
2	124 204 756.5	41 401 585.5	82 803 171
3	82 803 171	41 401 585.5	41 401 585.5
4	41 401 585.5	41 401 585.5	0

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, ijara muddati oxirida foydalanish huquqi tarzidagi aktiv qiymati to'laqonli xarajatlar tarkibida tan olinib hisobdan chiqarilgan bo'ladi. 16-son MHXS qo'llanishi ijara muddati davomida A korxona hisobotlarida axborotdan foydalanuvchilar uchun ijara bo'yicha tegishli majburiyat va aktivlarni to'liq aks etishini ta'minlab beradi. Bu esa axborotdan foydalanib qaror qiluvchilarni yanada to'g'ri va oqilona qaror qilish imkonini beradi.

Moliyaviy hisobotlarda aks ettirish

16-son MHXS ijaraga oluvchi subyektning moliyaviy hisobotlarida bir qancha o'zgartirishlar kiritdi. Ushbu hisobotdagi o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

- **Buxgalteriya balansida o'zgarishlar:** Ijaraga oluvchi subyektning balansida oldin tan olinmagan yangi aktiv -foydalanish huquqi tarzidagi aktiv va ijara majburiyati tan olinadi. Foydalanish huquqi tarzidagi aktiv hisobotda uzoq muddatli aktiv sifatida alohida qatorda ko'rsatiladi. Shuningdek moliyaviy hisobotga izohlar qismida foydalanish huquqi tarzidagi aktiv haqida alohida izohda yoritish talab etiladi. Ijara majburiyati esa bir yil ichida to'lanadigan qismi qisqa muddatli majburiyatlar tarkibida, majburiyatning qolgan qismi esa uzoq muddatli majburiyatlar qismida alohida ko'rsatiladi.

- **Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda o'zgarishlar:** 16-son MHXS ga muvofiq foydalanish huquqi tarzidagi aktiv majburiyat tan olinishi ushbu hisobotda oldin operatsion ijara xarajati sifatida aks ettirilgan xarajatlar o'rniga foydalanish huquqi aktivining eskirish xarajati hamda ijara majburiyati bo'yicha hisoblangan foiz xarajadni tan oladi. Eskirish xarajati ijara obyekti foydalanish maqsadidan kelib chiqib tegishli xarajatlar guruhiga kiritiladi, ijara majburiyati bo'yicha foiz xarajatlar esa foiz ko'rinishidagi xarajatlar tarkibida aks ettiriladi.

- **Pul oqimlari hisobotidagi hisobotda o'zgarishlar:** 16-son MHXS ga muvofiq ijara operatsiyalarini tan olinishi natijasida ijara to'lovlari avvallari operatsion faoliyat pul oqimi tarkibida tan olingan bo'lsa, endilikda ijara to'lovlari ikki turdagi pul oqimlarga bo'linadi. Bunda ijara to'lovlari bo'yicha asosiy to'lovlar moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimlar qismida, foiz to'lovlar esa korxona tanloviga qarab operatsion yoki moliyaviy faoliyatdan pul oqimlari tarkibida ko'rsatilishi mumkin..

- **Izohlar va qo'shimcha ma'lumotlarda o'zgarishlar:** 16-son BHMS ijara muomalalari bo'yicha keng qamrovli axborot yoritishni talab etadi. Xususan, ijaraga oluvchi subyekt foydalanish huquqi tarzidagi aktiv sinflar bo'yicha eskirish summolari, ijara majburiyati bo'yicha foiz xarajatlari, agar 12 oydan kam muddatga ijaraga olingan aktivlar bo'yicha xarajatlar, ijara shartnomasi bo'yicha qo'shilgan yangi shartnomalar bo'yicha axborotlar yoritib beriladi.

16-son MHXS qo'llanishi natijasida moliyaviy hisobotlarida axborotdan foydalanuvchilar uchun yanada shaffofroq, to'liqroq va o'rinli taqdim etilish imkonini yaratdi.

Xulosa

Ijara munosabatlari hisobini tashkil etishda 16-son MHXS qo'llash korxonalar hisobotlarida moliyaviy axborotdan foydalanib qaror qiluvchilar uchun yanada shaffof va haqqoniy tarzda axborotlarni taqdim etish imkonini yaratdi.

Foydalanish huquqi tarzidagi aktiv va ijara majburiyatlari moliyaviy hisobotlarda tan olinishi ijaraga oluvchi subyektlar aktivlar va majburiyatlar hisobini yaxshilanib, korxonalar moliyaviy ko'rsatkichlari ishonchliligini oshirdi. Natijada avval moliyaviy hisobotlarda ko'rsatilmagan ijara bo'yicha majburiyatlarni oshkor bo'lishi hamda iqtisodiy naf keltirish imkoniga ega aktivlarni tan olinishi bilan investitsion jozibadorlikni oshirish imkonini yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. IFRS Foundation. (2016). IFRS 16: Leases. IFRS Foundation. <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-16-leases/>
2. IFRS Foundation. (2018). Conceptual framework for financial reporting. IFRS Foundation. <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/conceptual-framework/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020, fevral 24). Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida: PQ-4611-son qaror. <https://lex.uz/docs/4746047>
4. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. (2009, aprel 24). 6-сон БХМС – “Ijara hisobi” (1946-сон билан рўйхатдан ўтказилган). <https://lex.uz/acts/1473352>
5. Doron, N. (2023, July 16). Right-of-use assets and the prediction of revenue. Columbia University - Columbia Business School.
6. Thomas, W. (2020). The economics of leasing. Merrill Journal of Legal Analysis, 12, 221–272.
7. Sorrentino, M., Smarra, M., & Farina Briamonte, M. (2020). Lease accounting: Back into the past—A general review of different theoretical approaches. International Journal of Business and Management, 15(2).
8. Khalikulova, Y. P. (2025, April 27). Rental and leasing accounting practices in Uzbekistan: A comprehensive overview and future directions. Innovative Achievements in Science.
9. Qudbiyev, N. T. (2024). Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida korxonalarda ijara munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 4(09), 337–342.
10. Baxadirov, A. (2025). Lizing oluvchi korxonalarda ijara hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish. Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar jurnali, 2(1), 417–422.

